

ARAB VA O'ZBEK TILLARIDA QIYOSIY ATAMALAR TAHLILINING DOLZARBLIGI

Abdurayimov Umidjon Abdunabi o'g'li
Oriental studies universiteti 2-kurs magistranti
Tel: +998913609020,
E-mail: abdurayimovumidjon04@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek va arab tillaridagi atamalar va ularning ahamiyati, xususan, arab va o'zbek tillaridagi atamalarning qiyosiy uslub bilan tahlil etish va ularning muqobillarini muvofiq holatda topish talabalarga qulaylik keltirishi haqida so'z yuritadi.

Kalit so`zlar:, Atamalar, arab tili grammamatik atamalar, arab tilida fe'l, fe'lni nasb qiluvchi atamalar, yuklamalar, yordamchilar.

So'nggi yillarda tilga bo'lgan e'tibor tobora kuchayib bormoqda, bu esa o'zbek v arab tili sohalariga oid atamalar ya'ni terminlar bilan ishlash ehtiyojni yuzaga keltiradi. Terminning ma'nosi, mohiyati, uning nomidan kelib chiqadi. Demak, Terminus lotincha – chegara, chek bundan ko'rinish turibdiki termin chekli, chegaralangan yani, termin muayyan sohaga oid, aniqrog'i-bir ma'noli so'zdir. Ma'lumki, har qanday so'z tug'ilishida bir ma'noli bo'ladi, lekin kishilik jamiyati taraqqiyoti davomida u ko'p ma'noli so'zga aylanib boradi. Lingvistik terminologiyaga bag'ishlangan ilmiy ishlarda har qanday termin so'zdir, lekin har qanday so'z termin bo'lolmaydi, degan fikr ilgari suriladi. Termin cheklanganligi, ya'ni bir ma'noni ifodalaganligi tufayli maxsus kontekstda hamma vaqt o'z ma'nosini saqlaydi. U emotsionallik va ekspressivlik xususiyatlariga ega emas. Ohang yordamida terminning ma'nosi o'zgarmaydi. Demak termin ma'lum bir sohaga oid so'zlar majmui. Ma'lum bir sohaga oid bo'lgan termin. Ayni shu sohada faqat birgina ma'noga ega bo'lishi mumkin. Demak, termin ma'lum bir sohada aniq bir ma'noga ega bo'lgan so'zdir O.P. Frolova esa —terminologiyal ga shunday ta'rif beradi: —Ma'lumki fanning atamalar tizimi sifatida tushunchalar tizimiga muvofiq bo_ladi, har qanday tushunchalar tizimiga aniq bir atamalar tizimi bog'liq bo'ladi. Fan rivojlanishi bilan atamalar tizimi ham rivojlanib boradi

Ilm -fanning barcha sohalarini bo'yicha davr talablariga javob beradigan terminologik tizimlarni yaratish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Shu bilan birga, bularni amalga oshirish nihoyatda murakkab, katta kuch talab qiladigan ish ekanligi ham shubhasiz.

Til - millatimiz faxri, jamiyatimiz ko'zgusi hisoblanadi.

Jumladan, terminologiyaga oid barcha ishlarning muvaffaqiyatli hal etilishida har bir sohaga oid terminlarni to‘la qamrab olgan terminologik lug'atlarni, ayniqsa, chet tillari sohasida izohli terminologik lug'atlarni tuzish va nashr etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday lug'atlarda har bir terminning o‘zi atayotgan tushunchaning, narsa-hodisaning mohiyatini qay darajada to‘g’ri, to‘liq va aniq ifodalashini belgilash muhimdir. Bu bilan har bir terminning talabga qanchalik muayyan javob berish-javob bermasligi aniqlanadi. Lug'atlar yaratilmaguncha terminologik tizimdagi har xil salbiy hodisalar, masalan, ayni bir tushunchani ifodalash uchun birdan ortiq terminning qo‘llanishi va, aksincha, bir necha (boshqa-boshqa) hodisalarni ifodalash uchun bir terminning qo‘llanishi, hodisaning mohiyatini to‘g’ri, to‘la va aniq ifodalay olmaydigan terminlarning mavjud bo‘lishi kabi va boshqa salbiy hodisalar davom etaveradi.

Bizning fikrimizcha ham, har bir ilmning o‘ziga xos jihatlarini, xususiyatlarini, istilohlarini to‘g’ri anglab yetish, ayniqsa til maslasiga oid ilmlariga doir mavzularning tub ma’nolarini, sharhlarini o‘rganish, ularning leksik, semantik jihatidan tortib qiyosiy tahlillarini tadqiq etish bugungi kunda ilmiy davralarda sodir bo‘layotgan turli tuman tortishuvlar, muqaddas dinimiz nomidan qilinayotgan turfa xil qiyinchiliklar kamaytirishi hamda ularni bartaraf qilishi mumkin.

Jumladan birgina arab tilidagi kelishiklarni misol qilib oladigan bo‘lsak, ularning barchasini ham o‘zbek tilida muqobilini topish mushkul yoki ayni muqobillarini bergen izoxli manbalarni ham topish qiyindir. Sababi ularni taqqoslash ba’zan murakkaboq tuyulishi mumkin.

Misol uchun:

Arab tilida kelishiklar

Arab tilida uch dona kelishik bor, bular:

bosh - رُفْعٌ

tushum - صَنْبُ

qaratqich - جَرْ

Arab tilining o‘ziga xos jihatlaridan yana biri shuki, fe’llarda ham kelishik mavjudligidir. Ularning ham oxiridagi harakatlari o‘zgarib turadi. Lekin bu hosida o‘zbek tilida uchramaydi. Va biz bu so‘zlarni o‘zini alohida izohlab ketishimiz kerak bo‘ladi.

Masalan: arab tilida fe’llar o‘zidan avvalgi kelayotgan xos so‘zlar ta’sirida o‘zgarishi mumkin:

أَنْ-shi/sh

لَنْ-hech

إِذْنُ-unday bo‘lsa

كَيْ:uchun

Ushbu so‘zlar o‘zidan keyingi kelayotgan fe’lni fatha holatiga o‘zgarishiga sabab bo‘ladi. Bu xususiyat faqat arab tiliga ta’luqli bo‘lib o‘zbek tilida bunday holat kuzatilmaydi.

Masalan:

يَكْتُبُ = لَنْ يَكْتُبَ

Lekin, ushbu sozlar o‘zbek tilida yuklama va yurdamchilar to‘g‘ri keladi va ular fe’lga ta’sir o‘tkazmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mahkamov N., Ermatov I. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Fan, 2013.
2. Dadaboyev Hamidulla. O‘zbek terminologyasi. – Toshkent, Yoshlar nashriyot uyi, 2020
3. A.Madvaliyev, N.Mahkamov, N.Mahmudov (rahbar), D.Xudoyberganova, O.Odilov.O‘zbek tilining izohli lug‘ati – Toshkent,O‘zbekiston nashriyoti 2021.

INTERNET MANBALARI:

1. <https://hozir.org/umumiyy-tilshunoslik>
2. <https://wikipedia.uz>